

O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-
muhitni muhofoza qilish va iqlim o'zgarishi vazirining
2023 yil " 5 " *iyun*
154 - son buyrug'iga 4-ilova

**O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni
muhofoza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi
huzuridagi ekspertlar kengashi to'g'risidagi
NIZOM**

I. UMUMIY QOIDALAR

1. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 7 sentyabrdagi "Atrof-muhitga ta'sirni baholash mexanizmini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 541-son qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofoza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Davlat ekologik ekspertizasi markazining ekspertlar kengashi (keyingi o'rinlarda – Kengash) faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Kengash davlat ekologik ekspertizasi xulosalarining xolisligi va asoslanganligini ta'minlash, Davlat ekologik ekspertiza markazi va uning filiallariga uslubiy yordam ko'rsatish, ularning faoliyatiga oid kelib tushgan murojaatlarni ko'rib chiqish, shuningdek, davlat ekologik ekspertizasini o'tkazish bilan bog'liq muammoli va bahsli masalalarni hal etish uchun tashkil etiladi.

3. Kengash o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari va boshqa hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlari shuningdek boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarga hamda mazkur Nizomga muvofiq olib boradi.

II. KENGASHNING ASOSIY VAZIFALARI:

4. Kengashining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

davlat ekologik ekspertizasi o'tkazilayotgan obyektlarni faoliyat turlari bo'yicha tasniflash bilan bog'liq muammoli masalalarni hal etadi;

Davlat ekologik ekspertiza markazi va uning filiallari faoliyatiga uslubiy rahbarlik qiladi;

davlat ekologik ekspertizasi xulosalarining atrof muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi qonunchilik talablariga muvofiqligini tekshiradi;

davlat ekologik ekspertiza buyurtmachisi (tashabbuskori)ning Davlat ekologik ekspertiza markazi va uning filiallari faoliyati yuzasidan murojaatlarini ko'rib chiqadi;

ekologiya ekspertiza to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarining amaliy qo'llanishi jarayonida davlat ekologik ekspertiza buyurtmachisi (tashabbuskori) hamda Davlat ekologik ekspertiza markazi va uning filiallari o'rtasida yuzaga keluvchi bahsli masalalarni ko'rib chiqadi va ular bo'yicha qaror qabul qiladi.

III. KENGASH HUQUQLARI

5. Kengash quyidagi huquqlarga ega:

Faoliyatning atrof-muhitga ta'sir ko'rsatish oyihalariga atrof-muhitga ta'sirini baholash bo'yicha xulosa berish;

kengash yig'ilishida ishtirok etish va ekspertizadan o'tkazish uchun mutaxassis va ekspertlarni jalb etish;

normativ-huquqiy hujjatlarning qo'llanilishida davlat ekologik ekspertizasi buyurmachilari hamda O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofoza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining Davlat ekologik ekspertizasi markazi o'rtasida aniqlangan muammoli masalalar, ziddiyatlar va noaniqliklar bo'yicha Davlat ekologiya qo'mitasining ixtisoslashtirilgan ekspert bo'linmalariga tavsiyalar berish, amaldagi qonunchilikni takomillashtirish, qonunchilikdagi va nizomlardagi bo'shliqlarni bartaraf etish yuzasidan tegishli takliflar kiritish;

markazlar qonunchilik faoliyatining eng dolzarb masalalari bo'yicha konsepsiya va dasturlarni ishlab chiqishda ishtirok etish;

O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofoza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining Davlat ekologik ekspertizasi markazidan zarur ma'lumot va hujjatlarni talab qilish hamda ularning xodimlarini Kengash faoliyatiga jalb etish.

V. KENGASH A'ZOLARINING MAJBURIYATLARI

Kengash a'zolari quyidagi majburiyatlarga ega:

Kengash vazifalarini amalga oshirishda ko'maklashish;

Sababsiz Kengash majlislarini o'tkazib yubormaslik;

Kengash qarorlarini, shuningdek Kengash va uning raisining ko'rsatmalarini bajarish.

